Etnologiya sohasida tadqiqotchilar uchun o’ziga xos mahorat maktabi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti Yosh olimlar kengashi tomonidan ilmiy seminarlar tashkil qilinmoqda. Shunday seminarlardan biri “Antropologiya va etnologiyaga kirish” mavzusida o’tkazildi. Mavzu yuzasidan “Antropologiya va etnologiya” markazi boshlig’i tarix fanlari doktori, professor Adhamjon Ashirov chiqish qildi. Ma’ruzada fanning rivojlanish tarixi, O’zbekistonda va jahonda olib borilayotgan etnologik tadqiqotlar hamda antropologiya tushunchasi va uning tadqiqot obyektlari borasidagi qarashlar bilan tanishtirdi.

Shuningdek, fanning o’rganilishi metodologiyasi hamda antropologiya yo’nalishining asosiy muammolari borasida to’xtalib o’tildi. Etnologiya va antropologiya sohasida olib borilayotgan ishlar hamda Markazning oldida turgan maqsad va vazifalar bilan atroflicha tanishtirdi. Ushbu ma’ruza va unda ko’tarilgan masalalar etnologiya sohasida tadqiqot olib borayotgan yosh izlanuvchilar uchun o’ziga xos mahorat maktabi bo’ldi deyish mumkin.